

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI IJTIMOIIY-HISSIY RIVOJLANTIRISH ILMIY-NAZARIY MUAMMO SIFATIDA

Baxriyeva Nargiza Axmadovna

Buxoro davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrası dotsenti nbaxriyeva@mail.ru

Annotatsiya: Hozirgi kunda uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'limni rivojlantirishga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Shundan kelib chiqib, ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirishning ilmiy-nazariy muammolari yoritib berilgan, xorij olimlari va respublikamizda faoliyat olib borayotgan olimlarning mavzuga oid tadqiqotlari tahlil qilingan.

Tayanch tushunchalar: maktabgacha yosh davri, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, hissiyot, ijtimoiylashuv, o'z-o'zini anglash, muloqot, emotsiyalar, emotsional rivojlanish, emotsional munosabat.

СОЦИАЛЬНО-ЭМОЦИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА КАК НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Бахриева Наргиза Ахмадовна

Бухарский государственный педагогический институт, доцент кафедры педагогики nbakhriyeva@mail.ru

Аннотация: В настоящее время большое внимание уделяется развитию дошкольного образования, которое считается начальным звеном непрерывного образования. Исходя из этого, в данной статье освещаются научно-теоретические проблемы социально-эмоционального развития детей дошкольного возраста, анализируются исследования зарубежных учёных и учёных, работающих в нашей республике по данной теме.

Основные понятия: дошкольный возраст, социально-эмоциональное развитие, эмоция, социализация, самосознание, общение, эмоции, эмоциональное развитие, эмоциональное реагирование.

SOCIO-EMOTIONAL DEVELOPMENT OF SCHOOL-AGE CHILDREN AS A SCIENTIFIC AND THEORETICAL PROBLEM

Bakhrieva Nargiza Akhmadovna

Bukhara State Pedagogical Institute, Associate Professor of the Department of Pedagogy nbakhriyeva@mail.ru

Abstract: Currently, much attention is paid to the development of preschool education, which is considered the initial link of lifelong education. Based on this, this article highlights the scientific and theoretical problems of the socio-emotional development of preschool children, analyzes the research of foreign scientists and scientists working in our republic on this topic.

Basic concepts: preschool age, social-emotional development, emotion, socialization, self-awareness, communication, emotions, emotional development, emotional response.

Maktabgacha ta'lim jarayoni hozirgi sharoitda bolalarga ta'lim va tarbiya olishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, inson rivojlanishining muhim davri sifatida bolalikning o'ziga xosligini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgandir.

Ijtimoiy-hissiy rivojlanish omillarining namoyon bo'lishi va taraqqiy etishi muammosi ko'pgina olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda ijtimoiy-hissiy rivojlanish muammosining qator o'ziga xos jihatlari ochib berilgan. Chunonchi, har bir tadqiqotchi mazkur muammoga o'z qarashlari va o'ziga xos ilmiy-amaliy tajribalari asosida yondashadi. Umuman olganda, mazkur qarashlarning o'ziga xos tomoni shundaki, ijtimoiy-hissiy rivojlanish hissiy holatlar va ijtimoiylashuv muammosi bilan birgalikda o'rganilgan. Shu ma'noda har bir ijtimoiy-hissiy rivojlanish omili maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, tahlil qilinadigan har bir talqin ijtimoiy-hissiy rivojlanish omillarining u yoki bu darajadagi metodologik omillarini ochib berishga xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy va hissiy rivojlanishi xorijiy va mamlakatimiz tadqiqotchilari tomonidan izchil o'rganilgan. Jumladan, «P.K.Anoxin, V.K.Vilyunas, K.E.Izard, S.L.Rubinshteyn, G.X.Shingarov kabi tadqiqotchilar bolalar ijtimoiy-hissiy rivojlanishi muammosida emotsiyalarning mohiyatini, D.N.Ovsiyanniko-Kulikovskiy, L.I.Petrajiskiy, A.A.Potebnya, ijtimoiy emotsiyalar fenomenologiyasini, T.P.Gavrilova, R.N.Ibragimova, A.D.Kosheleva, Ye.I.Kulchiskayalar ijtimoiy emotsiyalarning ontogenezda paydo bo'lish shartlari va qonuniyatlarini, L.P.Strelkova, N.M.Trofimova va P.M.Yakobson ijtimoiy emotsiyalar rivojlanishi bosqichlarining nazariy tuzilmasini, A.V.Zaporojes va Ya.Z.Neverovichlar esa harakatlarni emotsional yo'naltirishni dinamik rivojlantirish masalasini o'rgandilar» [2; 3].

Ijtimoiylashuv ijtimoiy-hissiy rivojlanishning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ijtimoiylashuv muammosi psixologlar B.G.Ananyev, L.S.Vigotskiy, N.N.Veresev, S.D.Deryabo, A.F.Lazurskiy, A.N.Leontyev, V.N.Myasishev, V.I.Medvedev, S.L.Rubinshteyn kabi olimlarning qiziqishlari markazida turgan. Ijtimoiylashuvni ular murakkab psixologik tuzilma sifatida qarab, kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlarining izchil birligida tasavvur qilishadi. Ijtimoiylashuvni atrofdagi insonlarga nisbatan shaxs axloqiy-ma'naviy rivojlanganligining ko'rsatkichi sifatida ko'rishadi.

Psixologik xususiyatlar va shaxsiy sifatlar bola ontogenezining ilk davrlaridan shakllana boshlaydi hamda o'z navbatida bolaning keyingi rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Har bir bolaga uning psixologik va jismoniy rivojlanish xususiyatlari, talablari va ehtiyojlaridan kelib chiqib individual yondashish, ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni va shakllarini takomillashtirish muhimdir.

«Maktabgacha yoshdagi bolalarning farovonligi masalasi L.A.Abramyan, O.V.Gordeeva, A.D.Kosheleva, G.G.Filippova ishlarida o'rganilgan. Ularning tadqiqoti natijalariga ko'ra, boladagi barqaror ijobiy, qulay emotsional holat, bolaning olamga nisbatan pozitiv munosabati asosi sanalgan va uning oilasidagi vaziyatga doir kechinmalari, bilish sohasi, emotsional-irodaviy sohasi, stressli vaziyatlarda kechinmalarni his qilish uslubida, tengdoshlari bilan muloqotiga ta'sir ko'rsatuvchi

tayanch munosabatlarida namoyon etiladi. Umumlashgan holda bunday tayanch emotsional holat – emotsional barqarorlik (farovonlik) sifatida aks etadi» [8; 3]. Oddiy bo'lib ko'rinishiga qaramasdan, his-tuyg'ularni bilish va uzatish ma'lum darajada murakkab jarayon bo'lib, u boladan o'ziga xos bilimlarni, ma'lum rivojlanish darajasini talab qiladi. Demak, bola his-tuyg'ular nima ekanligini qanchalik teran anglasa, u boshqalarning ham hissiy holatini aniqroq tushunish imkoniga ega bo'ladi.

Katta maktabgacha yosh bolalarda shaxs hissiy sohasini rivojlantirishga nisbatan senzitiv davr bo'lib hisoblanadi. Shu bois, emotsiyalari va hissiyotlari orqali ijodiy potensialini rivojlantirish bolalarning yaxlit rivojlanishida sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'pgina tadqiqot ishlarida ta'kidlanishicha, hissiyotlar bolalarning butun rivojlanishi davrida namoyon etilishining boy mazmuniga va murakkab shakllariga ega bo'lib, progressiv taraqqiyot yo'lini bosib o'tadi; ushbu o'zgarishlar bola tomonidan ijtimoiy qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladi va shaxsning ichki mulkiga aylanadi. G.M.Breslav, K.Bridjes, A.D.Kosheleva va Ya.Z.Neverovichlar maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy rivojlanishi jarayonlarini o'rganib, bolalarning o'zini emotsional namoyon etishida sifat o'zgarishlari yuz berganligini ko'rsatib berishgan.

Emotsiya va hissiyotlar bola va kattalar o'rtasidagi kommunikatsiya jarayonida shakllanadi. Maktabgacha yoshda bolalarning kattalarga hissiy bog'liqligi saqlanib qoladi. Kattalarning xatti-harakati doimo bolaning xatti-harakati va faoliyatidagi faollik darajasini belgilaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dastlab diqqat uning atrof olamga nisbatan qiziqishlarini va narsalar bilan munosabatini aks ettiradi. Bola biron narsa yoki predmet mohiyatini sodda tarzda anglagach, unda qiziqish so'nadi. Yangi predmetning paydo bo'lishi bolada qiziqishning unga nisbatan yo'nalganligini hosil qiladi. Shu bois, bolalar uzoq muddat davomida bir xil yo'nalishdagi faoliyat bilan shug'ullanishdan zerikishmaydi. Shaxslararo muloqot jarayonida bir-birini tushunish, anglash va qo'llash muhim sanaladi. Zero, bolalar jamoaviy faoliyati taraqqiyotida o'g'il va qiz bolalarda hamdardlik hamda rahm-shafqat ko'rsatish qobiliyati namoyon bo'lishi muhimdir.

Korreksion psixologiya bo'yicha yetuk mutaxassislardan biri O.K.Agavelyanning monografiyasida noverbal muloqot, xatti-harakatlar, ertak terapiyasi, yozuv, maxsus maktab o'qituvchisi shaxsining ijtimoiy-idrok xususiyatlari va ta'lim jarayonidagi munosabatlarni oqilona boshqarish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

Ta'limda umummadaniy yondashuv, bolalar va kattalarning kommunikatsiyasi jarayonida muloqot ijtimoiy-hissiy rivojlanishning muhim omili sifatida; bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirish uchun ular bilan ta'limiy va tarbiyaviy faoliyatni tashkil etganda bolalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish (L.S.Vigotskiy, M.I.Lisina, J.J.Russo, B.D.Elkonin va boshq.); bolalar bilan mashg'ulotlarni tashkil etish jarayonida gumanistik yondashuv bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirishga qaratilishi maqsadga muvofiqligi (Ye.V.Bondarevskaya, I.B.Kotova, Ye.N.Shiyanov va boshq.); muhitga asoslangan yondashuv, ijtimoiylashuv va o'zaro munosabatlarni oqilona tashkil etish (B.G.Ananyev, L.I.Bojovich, A.V.Zaporojes, M.I.Lisina, A.V.Mudrik, A.G.Ruzskaya va boshq.) va ijtimoiylashuvning boshqa jihatlari qamrab olingan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsional farovonligi masalasi L.A.Abramyan, O.V.Gordeeva, A.D.Kosheleva, G.G.Filippova ishlarida o'rganilgan. Ularning tadqiqoti natijalariga ko'ra, boladagi barqaror ijobiy, qulay emotsional holat, bolaning olamga nisbatan pozitiv munosabati asosi sanalgan va uning oilasidagi vaziyatga doir kechinmalari, bilish sohasi, emotsional-irodaviy sohasi, stressli vaziyatlarda kechinmalarni his qilish uslubida, tengdoshlari bilan muloqotiga ta'sir ko'rsatuvchi tayanch munosabatlarida namoyon etiladi. Umumlashgan holda bunday tayanch emotsional holat – emotsional barqarorlik (farovonlik) sifatida aks etadi [9; 3].

Bugungi kunda asosiy ustuvor vazifa pedagogning bola bilan shaxsga yo'naltirilgan yondashuvi, uning individualligini, qiziqishlari va ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va uning hissiy farovonligiga g'amxo'rlik qilishdan iborat bo'lmog'i zarur. Chunki, boshqa insonlar bilan muloqot o'rnatish, ular bilan o'zaro munosabatga kirishish, o'z xatti-harakatlarini maqbul yo'naltirish nafaqat ijobiy hamkorlikdagi faoliyatni ta'minlaydi, balki, bolaning keyingi ijtimoiy holati va nufuzi shakllanishiga ham ta'sir etadi. «Qulay sharoitlarda olib borilgan ijtimoiy va oilaviy tarbiya natijasida maktabgacha yoshdagi bolalarda tengdoshlariga, tarbiyachiga va bolalar bog'chasiga yaqinlik tuyg'ulari namoyon bo'ladi. Bolalar atrofida gilar bilan xushmuomala bo'ladilar, oson muloqotga kirishadilar, ular mehribon, sezgir, kattalarning koyishlariga e'tibor bilan qaraydilar, o'z xatti-harakatlarining ma'qullanishini quvonch bilan qabul qiladilar va yanada yaxshiroq bo'lishga tayyorlikni ifodalaydilar» [9; 13]. Bolalar jamoaviy faoliyati taraqqiyotida o'g'il va qiz bolalarda empatiya hamda rahm-shafqat ko'rsatish qobiliyati namoyon bo'lishi muhimdir.

«Emotsiyalar», «emotsional rivojlanish», «emotsional munosabat» kabi tushunchalar mohiyatini ochib beruvchi falsafiy, pedagogik va psixologik konsepsiyalar qator olimlar tadqiqot ishlarida o'rganilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar muloqoti va emotsional sohasini rivojlantirish Yu.V.Ayzina, N.V.Klyueva, G.Z.Kobeleva, N.L.Kryajeva, Ye.M.Listik, N.V.Nijegorodseva, L.A.Nikiforova, O.N.Saranskaya, S.Yu.Chijova, G.A.Shirokovalar tadqiqotlarida o'rganilgan. Olimlar maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiyligi va kommunikativ malakalari shakllanishi o'rtasida muhim aloqadorlik mavjudligini ta'kidlashadi» [3; 3.]. Shu bois, maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish va tarbiyalashda bolalar muloqotini boshqarish (yo'naltirish)ning tarbiyaviy-ta'limiy ta'sir metodlari va samarali shakllarini nazariy asoslash va amaliyotda qo'llash pedagogika va psixologiya fanlari amaliyoti oldida turgan dolzarb masalalardan sanaladi. «Bolalarning hamkorligi ularning nafaqat birgalikdagi faoliyati, balki samarali tarzda o'rnatilgan munosabatlari hamdir» [1; 30]. Bolalarning hamkorlikdagi faoliyati ularda muloqotchanlikni shakllantirish, muloqotni to'g'ri tashkil etish orqali ijtimoiy munosabatlarga kirishish imkonini beradi.

Bolalarning psixik va shaxsiy rivojlanishini ularning atrofida gilar bilan samarali muloqoti orqali optimallashtirish muammosi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, bolalarda maqsadni tasavvur qilish boy emotsionallik bilan ifodalanishi zarur, chunki, tashqi ta'sir omillariga qaramasdan, ular o'z diqqatini maqsadga yo'naltirishi va ushlab tura olishi muhimdir.

Muloqot, uning bola shaxsiy hamda psixik rivojlanishidagi roli va ta'siriga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar tahlili ko'rsatishicha, ushbu muammo olimlar va tadqiqotchilarning doimiy diqqat markazida turibdi. Mazkur muammoning ayrim qirralari ham mamlakatimiz, ham xorijiy olimlar tomonidan ma'lum darajada o'rganilgan.

Hissiyotlar bolaning shaxs sifatida rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, xarakter va xulq-atvor singari individual-tipologik xususiyatlarni ifodalab, uning natijasi va borishi jarayonini belgilaydi hamda faoliyatga ta'sir ko'rsatadi. Ko'pgina tadqiqot ishlarida ta'kidlanishicha, hissiyotlar bolalarning butun rivojlanishi davrida namoyon etilishining boy mazmuniga va murakkab shakllariga ega bo'lib, progressiv taraqqiyot yo'lini bosib o'tadi; ushbu o'zgarishlar bola tomonidan ijtimoiy qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladi va shaxsning ichki mulkiga aylanadi.

Maktabgacha ta'limda amaliyotchi pedagoglarning maktabgacha yoshdagi bolalikka munosabatini o'zgartirish ta'lim jarayoni, uning shakl va metodlari, ta'lim texnologiyalarini yaratish, shaxsga yo'naltirilgan bola va kattalarning o'zaro ta'siri, ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish munosabatlarini qayta ko'rib chiqishni talab etadi. «Tayyorlov guruhidagi bolalarning hamkorlikdagi faoliyatlarini muvofiqlashtirish ularga harakat usullarini birgalikda bajarishga imkon beradi. Bolalarning hamkorlikdagi harakatlarini nazorat qilish va munosib baholash, ularning birgalikdagi faoliyatlarini modellashtirish, ularni amalga oshirishning yangi shakllari va usullarini izlashga undaydi» [1; 4.]. Bu esa, pedagogik-psixologik tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, bolaning tarbiyachi bilan muloqoti xarakteri va mazmuni, tengdoshlari bilan munosabatlari, faoliyat va uning natijasi muvaffaqiyati, shuningdek, muloqot madaniyati orqali namoyon etiladi.

Ijtimoiylashuv borasidagi talqinlarning ko'pligi va turli-tumanligiga qaramasdan, ular orasida ijtimoiylashuvni «tashqi omil» yoki «ijtimoiy nazorat» sifatida ko'rish ustun xarakterga ega. Ushbu ta'rif boshqalaridan farq qilib, ijtimoiylashuv tushunchasini shaxsga nisbatan emas, balki tashqi omilga nisbatan ijtimoiy nazorat nuqtai nazaridan o'rganishga harakat qildi. Ijtimoiy nazorat ijtimoiylashuv mazmunini tashkil etishini ta'kidlaydi.

Taniqli psixolog V.A.Petrovskiy ta'kidlaganidek, shaxs, o'z-o'zini anglash subyekti bo'lishdir. Buni anglash ortida falsafiy tahlilning boy an'analari turadi. Ilmiy tadqiqotlarda (A.G.Gogoberidze, T.V.Yermolova, Yu.A.Lebedev, L.V.Trubaychuk, P.M.Chumicheva va boshq.) maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvi masalalari o'rganilgan, biroq, ancha tor darajada. Ta'kidlash lozimki, bolalarning ijtimoiylashuviga qaratilgan yondashuvlar va ish shakllari ta'limning insonparvarlashuvi talablari asosida tashkil etilishi lozim.

«Bolalik davrida hissiy jarayonlarning rivojlanishi faoliyatni tartiblashtirish bilan chambarchas bog'liq. Agar rivojlanishning dastlabki bosqichlarida his-tuyg'ular idrok etilgan vaziyatni to'g'ridan-to'g'ri baholash shaklida paydo bo'lsa, keyingi bosqichlarda ular harakatni amalga oshirishdan oldin uning mumkin bo'lgan oqibatlarini hissiy kutish shaklida paydo bo'lishi mumkin. Hissiy farovonlik bolaning o'ziga xos faoliyati tufayli yuzaga keladi va affektiv hamda kognitiv jarayonlarni birlashtiradi» [6; 26]. Hissiyotlar insonning doimiy hamrohi bo'lib, uning barcha fikr va

harakatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Hissiyotlar bolani insoniylik va xayrixohlik asoslarida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarida muloqotning turli aspektlarini yorituvchi ilmiy manbalar ko'rsatishicha, bu boradagi ayrim muammolar qisman qamrab olingan, jumladan, turli yosh guruhlarida bolalar bilan muloqotni tashkil etish ishlari, bolalar bilan ular individualligidan kelib chiqqan holda muloqotni rivojlantirishning maxsus pedagogik shartlari, ta'lim subyektlarining ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan muloqot amaliyotiga yo'naltirilgan ish shakllarini ishlab chiqish kabilardir.

«Ijtimoiylashuv tushunchasi shaxsning ijtimoiy muhitga moslashuvi orqali to'la integratsiyalashuvi jarayoni bo'lib, bu amerika sotsiologiyasining tuzilmaviy-funksional yo'nalishida (T.Parsons, R.Merton) o'z aksini topgan. Ushbu maktab an'alarida ijtimoiylashuv «adaptatsiya» tushunchasi orqali ochib beriladi» [7; 138].

Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqotning murakkabligi, faol muloqot jarayonlari negizida tarbiyachilarning bolalar va ota-onalar bilan ish shakllari M.V.Kruxov, A.A.Lyubinskaya, V.S.Muxina va R.S.Nemovlar tomonidan ijtimoiylashuvning muhim davri: psixik hamda shaxs sifatida rivojlanishning muhim davri sifatida ta'kidlangan. Aynan ushbu davrda bolalarda barcha sohalar, ayniqsa, jismoniy, intellektual, kommunikativ, emotsional va irodaviy sohalarida murakkab o'zgarishlar yuz beradi. «Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarining ijtimoiylashuvi masalasini san'atning turli shakllari vositasida (O.V.Ibragimova, T.S.Maskevich, I.V.Rjelyanskaya, Ye.N.Timofeyeva), musiqa san'ati vositasida (Ye.S.Vanina, I.F.Kamalova, V.G.Mozgot, Ye.V.Samoxvalova, L.A.Tarasova, N.R.Turaves), oilaviy tarbiya orqali (L.I.Kraeva, Ye.L.Tixomirova), teatr faoliyati orqali (I.G.Andreyeva, S.N.Chechina), xalq o'yinlari va o'yin faoliyati orqali (Yu.P.Bryuxova, I.G.Galyant, A.N.Sidorova), etnomadaniy an'alar vositasida (N.T.Abidova, G.A.Argunova), jismoniy tarbiya orqali (A.A.Taran) amalga oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan» [8; 14].

Ijtimoiy-hissiy jihatdan rivojlangan bolalarda tengdoshlari bilan shaxsiy xususiyatlarga urg'u bermagan holda munosabatlarni tashkil etish, o'zaro ta'sirning produktiv va pozitiv namunalarini o'zlashtirish, insonlarning shaxslararo munosabatlaridagi ijtimoiylikka yo'nalganlik, tengdoshlari bilan muloqot ehtiyojlarini qondirish samaradorligi kengayadi.

M.A.Xromova ta'kidlashicha, hozirgi sharoitda avlodlar paradigmasi, uning yosh bilan bog'liq jihatlari borasidagi tasavvurlar tubdan o'zgardi, bu esa tadqiqotchilarni shaxsning o'zini-o'zi anglash mexanizmlari sifatida aynan o'z-o'zini baholash masalalarini maktabgacha yoshdan boshlab o'rganishga undaydi. B.G.Ananyevning shaxsni faoliyat, bilish va muloqot obyekti sifatida shakllantirish nazariyasiga asoslanib, maktabgacha yoshdagi bolalarning muloqot subyekti sifatida o'zida kognitiv va hissiy jihatlarni namoyon etishi darajasi ularning ijtimoiylashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Muloqot jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlaydigan kommunikativ qobiliyatlar bola shaxsini hissiy rivojlantirish orqali uni ijtimoiy-hissiy rivojlantirishga shart-sharoit yaratadi. Qulay sharoitlarda olib borilgan ijtimoiy va oilaviy tarbiya

natijasida maktabgacha yoshdagi bolalarda tengdoshlariga, tarbiyachiga va bolalar bog'chasiga yaqinlik tuyg'ulari namoyon bo'ladi. Shaxsiy-faoliyatli yondashuv (L.S.Vigotskiy, O.S.Gazman, E.V.Zautorova, I.A.Zimnyaya, F.I.Kevlya, V.V.Krayevskiy, A.N.Leontyev, S.I.Maslov, V.V.Serikov, I.S.Yakimanskaya va boshq.) da tadqiqotchilar shaxsni yaxlit tarzda shakllantirish g'oyasini ilgari suradilar, bu esa, turli faoliyatlar orqali yangi tajribani egallash va o'zida singdirish, olamni va insonlar o'rtasidagi munosabatlarni emotsional darajada bilishni ko'zda tutadi.

Ijtimoiy-hissiy rivojlanish bola shaxsi rivojlanishining ko'rsatkichi sifatida verbal va noverbal vositalar yordamida amalga oshiriladigan o'zaro ta'sirga ehtiyoj bilan tavsiflanadi. Uning asosida bola shaxsining yaxlitligi, uning o'ziga xosligi, o'zini-o'zi anglash ehtiyojlari va fikrlash madaniyati shakllanib boradi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasida hamkorlik munosabatlarini tashkil etish ulkan imkoniyatlar yaratadi. Bola oilada muloqotga o'rganadi, dastlabki ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi. Oila Bolani ijtimoiy hayotga tayyorlaydigan dastlabki tarbiya maskani hisoblanadi.

Bola uchun emotsional muloqotning mazmuni faqatgina ma'lum qoida va me'yorlar bilan belgilanmaydi. Bola ijtimoiy-hissiy rivojlanishi dinamikasida tajribasi to'planishining alohida holatini boshidan kechiradi. Bolaning emotsional rivojlanishida imkoniyatlarni samarasiz sarflash «psixologik botib qolish»ga, bolada «emotsional yopiqlik»ka olib keladi. Bu esa o'sib kelayotgan yosh avlodni emotsional rivojlantirish muammosining dolzarb masalalardan biri bo'lib, ushbu muammoni samarali hal qilish yo'llarini izlash esa zamonaviy pedagogik nazariya va amaliyot uchun muhim vazifa hisoblanadi. Bola taraqqiyotida imkoniyatlarni baholay olish, ularni to'g'ri yo'naltirish bola rivojlanishini me'yorlashtirish va ijobiy hissiy holatlarni shakllantirish imkoniyatini beradi.

Ijtimoiy tajriba asosida bola o'zining hissiy holatiga ta'sir etadigan, uning o'ziga xosligini ta'minlaydigan umumlashgan kechinmalarni o'zida aks ettiradi. Bolaning hayoti va faoliyati davomida emotsiyalar irodaviy jarayonlardan ustun kelib uning salomatligi va shaxs sifatida kamol topishiga asos yaratadi, unda ijtimoiy muhim sifatlar tarbiyalanishini ta'minlaydi.

Umuman, ijtimoiy-hissiy rivojlanish muammosi borasida respublikamiz olimlari tomonidan ham qator izlanishlar amalga oshirilganligini aytib o'tish lozim. Bunda «men» obrazi, hissiyotning rivojlanishi, ijtimoiylashuv masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, respublikamiz psixologlaridan F.A.Akramova, B.M.Botirov, E.G'.G'oziyev, A.M.Jabborov, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, M.A.Norbosheva, M.M.Taydjanova rahbarligida olib borilgan tadqiqotlarda hissiy holatlarning namoyon bo'lishi va rivojlanishi, ijtimoiylashuv masalalariga oid tadqiqotlarni alohida qayd etish mumkin.

Jumladan, F.A.Akramova ijtimoiy psixologiya sohasi rivojiga hissa qo'shgan olim hisoblanib, ijtimoiylashuv bosqichlarini quyidagilarga bo'ladi:

birinchi bosqich — mehnat faoliyatigacha bo'lgan bosqich;

ikkinchi bosqich — mehnat faoliyati davri;

uchinchi bosqich — mehnat faoliyatidan keyingi davr.

«Birinchi bosqichga bolaning maktabgacha yosh davri hamda o'qish yillari kiradi va bu davrdagi ijtimoiylashuvning ahamiyati va o'ziga xosligi shundaki, bu

davrda asosan tashqi ijtimoiy muhit, ijtimoiy ta'sirlar faol ravishda ongga singdiriladi, mustaqil hayotga tayyorgarlik borasida muhim bosqich o'tiladi» [4;77]. F.A.Akramova maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuviga alohida to'xtalib, inson taraqqiyotida ushbu davrning ahamiyatini qayd etib o'tgan va maktabgacha yosh davrida ijtimoiy muhitning ta'siri, ijtimoiy ta'sirlarning bola tomonidan o'zlashtirilishi uning shaxs sifatida taraqqiy etishida muhimligini ta'kidlagan.

Professor V.M.Karimova tomonidan shaxs ijtimoiylashuvi muammosi juda chuqur tahlil etilgan bo'lib, unga ko'ra ijtimoiy tarbiyaning dastlabki o'chog'i oila bo'lib, aynan ota-ona dastlabki ijtimoiy ko'nikmalarni bola ongiga singdiruvchi, uning irodasini charxlovchi insonlardir. Oilaviy munosabatlar bolani nafaqat shaxs sifatida o'zligini anglash, balki o'zini u yoki bu jins vakili sifatida idrok etish va shaxsiy fazilatlarini takomillashtirishga ham yordam beradi [4; 68].

Professor E.G'.G'oziyevning ilmiy ishlarida o'z-o'zini anglash, hissiyotnong o'ziga xosligi, hissiyotning rivojlanishiga oid bir qator qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Z.T.Nishonova maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxsiy va hissiy xususiyatlarning rivojlanishi, maktabgacha yoshdagi bolalarda yosh inqirozlarining o'z hissiyotlari va kechinmalari bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. «Maktabgacha yosh davrida bola o'zini jismoniy alohida mustaqil individ sifatida anglashdan, o'z hissiyotlari va kechinmalarini anglashgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tadi. Bu hissiyotlar aniq faoliyat turi bilan bog'liq. Bola o'z hissiyotlari va kechinmalarini umumlashtirish asosida o'z-o'ziga munosabatda bola boshlaydi» [5; 268].

M.Sh.Rasuleva o'z ilmiy izlanishlarida katta maktabgacha va kichik maktab yosh davrida burch hissini shakllantirish masalasiga e'tibor qaratgan bo'lib, maktabgacha yosh davridayoq bolaning bilish jarayonlari va hissiy-irodaviy sohasiga maqsadli yo'naltirilgan ta'sir orqali burch hissini rivojlantirish mumkin deb hisoblaydi. Muallifning katta maktabgacha yoshdagi bolalarning burch haqidagi bilimlari hajm va mazmun jihatidan kichik maktab yoshidagilardan farq qilishini, katta maktabgacha yosh davrida bu tasavvurlar o'yin faoliyati bilan bog'liq bolib, kattalar, tengdoshlari va kichik yoshdagilar bilan bo'lgan munosabatlar doirasida chegaralanishini ta'kidlagan [5; 269].

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirish masalasi xorij va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, hozirgi kunda ijtimoiy-hissiy rivojlanishning mezonlarini ishlab chiqish va uni amaliyotga qo'llash masalasi muhimdir. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish bolalar yaxlit rivojlanishining maxsus tashkillashtirilgan, bosqichli pedagogik jarayoni bo'lib, bolaning emotsional tajribasi va qiziqishlariga asoslanadi. Binobarin, turli faoliyatlar jarayonida bolalarning bilish, anglash, aniqlab olish qobiliyati shakllandi, turli emotsiyalar mazmunini tushunish va ifodalash, ularni differentsiatsiyalash kattalar ko'magida amalga oshirilganligi bois, bolada o'z emotsional holatini baholash va boshqarish, unda olamga, boshqa kishilarga, o'ziga nisbatan emotsional-pozitiv munosabat shakllandi. Shunday ekan, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi ularning ijtimoiylashuvini, o'zligini anglashini, o'zining va boshqalarning hissiy holatini tushunish va boshqara olishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A'zamova M.N. Maktabga tayyorlov guruhlar tarbiyalanuvchilarida do'stona munosabatlarga asoslangan hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish tizimini takomillashtirish. P.f.f.d. diss-ya. Toshkent, 2020. – 154 b.

2. Винокурова О.В. Динамика социо-эмоционального развития детей шести-семи лет в образовательном процессе дошкольных учреждений. Автореф. дисс. канд. психол. наук. Калуга, 2004.

3. Ильина С.В. Развитие эмоциональной сферы старших дошкольников в процессе общения со сверстниками. Автореф. дисс. канд. психол. наук. Курск, 2009.

4. Ismoilova N., Abdullayeva D. Ijtimoiy psixologiya. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013.- 168 b.

5. Nishanova Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya: darslik / Z.T. Nishanova va boshq. — Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. — 600 b.

6. Солдатенко К.Ю. Формирование иноязычных коммуникативных умений у детей старшего дошкольного возраста. Автореф. дисс. канд. пед. наук. Москва, 2020.

7. Слостенин В.А. и др. Педагогика: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / В. А. Слостенин, И.Ф.Исаев, Е.Н.Шиянов; Под ред. В.А. Слостенина. - М.: Издательский центр «Академия», 2002. - 576 с.

8. Социально-эмоциональное развитие детей // Учебно-методический комплект. –М.: Корпорация «Российский учебник», 2015.

9. Торгаева И.Н. Психолого-акмеологические факторы формирования личностно-профессиональной Я-концепции военнослужащих по контракту: Автореф. дис. ... канд. психол. наук. — Ульяновск, 2006.

10. Хромова М.А. «Экспериментальное исследование особенностей развития самооценки» (от старшего дошкольного до старшего подросткового возраста). https://lib.herzen.spb.ru/media/magazines/contents/1/94/khromova_94_308_315.pdf